

“LoanId” RAQAMLI KREDIT KARTASI BO‘YICHA KREDIT LIMITINI TAQDIM ETISH SHARTNOMASI

Toshkent sh.

“Date” y.

"TBC Bank" ATB nomidan Ustav asosida ish yurituvchi "DisbursementResponsiblePerson", bundan keyin "Bank" deb yuritiladi, va jismoniy shaxs "FullName" (JSHSHIR: "PINFL", tug'ilgan sana: "birthdate", "IDSeriesAndNumber", "Address"), bundan keyin "Qarz oluvchi" yoki "Mijoz" deb yuritiladi, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb atalib, kredit kartasi bo'yicha kredit limitini taqdim etish to'g'risida ushbu shartnomani (bundan keyin "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ATAMA VA IZOHLAR

- 1.1. **Kredit kartasi** - Qarz oluvchi tomonidan Bank tomonidan taqdim etilgan Kreditlash limiti doirasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan, unga birlashtirilgan yagona bank hisobvarag'i bilan birga Bank tomonidan chiqarilgan virtual yoki jismoniy bank kartasi (keyingi o'rinlarda - Karta).
- 1.2. **Limit** – Bank tomonidan belgilanadigan va qayta ko'rib chiqiladigan maksimal summa bo'lib, uning doirasida Qarz oluvchiga Kartadan foydalangan holda xarajat operatsiyalarini amalga oshirish uchun yangilanadigan kredit liniyasi mablag'laridan (bir vaqtning o'zida yoki qismlarga bo'lib) foydalanish imkoniyati beriladi. Kreditlash limiti Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini muntazam baholash (skoring) asosida hisoblanadi (bundan buyon matnda “Limit” deb yuritiladi).
- 1.3. **Hisobot davri** – Ko'chirma sanasidan (shu jumladan) keyingi Ko'chirma sanasidan oldingi kungacha bo'lgan davr. Karta bo'yicha birinchi hisobot davri Karta orqali amalga oshirilgan birinchi amal sanasidan boshlab to Ko'chirma sanasigacha hisoblanadi.
- 1.4. **Foizsiz davr qarzidorligi** - Mijozning Hisobot davri oxiridagi Ko'chirma bo'yicha qarzidorligi, shu jumladan: Limit bo'yicha asosiy qarzidorlik hamda Tariflar va Shartnomada nazarda tutilgan to'lovlar, Ko'chirma sanasida hisoblangan vositachilik haqi va foizlar.

- 1.5. **Ko'chirma** – Bankning mobil ilovasida Mijozga taqdim etiladigan Karta bo'yicha ko'chirma, unda har bir Hisobot davri uchun asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha Minimal to'lovni amalga oshirish summasi va muddati, shuningdek Mijoz tanishishi shart bo'lgan boshqa ma'lumotlar mavjud.
- 1.6. **POS amaliyotlari (Xaridlar)** – Jismoniy POS yoki virtual ePOS terminallari orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar, mobil ilovalar orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovlar hamda Karta tariflariga muvofiq boshqa operatsiyalar amalga oshiriladi.
- 1.7. **Cash-operatsiyalar (naqd pul yechish)** – Bankomatlar orqali naqd pul yechish va/yoki Karta tariflariga muvofiq naqd pul yechishga tenglashtirilgan boshqa operatsiyalar.
- 1.8. **"Ish kunlari"** Shartnoma matnida Bankning operatsion ish kunlarini anglatadi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

- 2.1. Shartnoma shartlariga ko'ra, Bank Qarz oluvchining skoring tizimi tomonidan ma'qullangan kredit arizasi asosida Kredit kartasini chiqaradi va Karta bo'yicha Kredit liniyasi limitini taqdim etadi, Qarz oluvchi esa Bankka foydalanilgan summani to'liq hajmda qaytarish va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Limitdan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.
- 2.2. Karta bo'yicha operatsiyalar uchun tariflar "TBC Bank" ATBning kredit kartasi bo'yicha tariflarida (matnda - Tariflar) belgilanadi, ular Bank veb-saytining "Hujjatlar" bo'limida joylashgan - <https://tbcbank.uz/uz/documents>.
- 2.3. Ushbu Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan kredit arizasini topshirish jarayonida TBC UZ mobil ilovasida Shartnoma akseptlangandan so'ng tuzilgan hisoblanadi.

3. KREDITLASH BO'YICHA UMUMIY SHARTLAR

- 3.1. **Birlamchi limit:** "maxlimit" ("maxlimit_in_words") so'm.
- 3.2. **Limit muddati:** Bank tomonidan keyingi qayta ko'rib chiqilgunga qadar, biroq "Date" yildan kechiktirmay.
- 3.3. **Limit valyutasi:** milliy valyuta - so'm.
- 3.4. **Foiz stavkalari:**
 - 3.4.1. **POS operatsiyalari (Xaridlar):** «pos_rate»%;
 - 3.4.2. **Cash-operatsiyalar (naqd pul yechish):** «cash_rate»%;
 - 3.4.3. **Kechikish uchun oshirilgan foiz:** Tariflarga muvofiq.
- 3.5. **Minimal qaytarish miqdori (Minimal to'lov):** "minimal_payment" asosiy qarz summasining foizi va hisoblangan foizlar (Tarifga muvofiq).

- 3.6. **Ko'chirma sanasi:** foizsiz davr qarzdorligi va minimal so'ndirish summasini hisoblash sanasi. Karta bo'yicha ko'chirma sanasi haqida Bank Qarz oluvchini TBC UZ ilovasi orqali yoki SMS orqali xabardor qiladi.
- 3.7. **To'lov sanasi:** Ko'chirma sanasidan keyin 24 (yigirma to'rtinchi) kun. Agar to'lov sanasi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, Bank tomonidan kliring fayllarining kechikib olinishi (to'lovning amalda hisobga o'tkazilishi) oqibatida foizlar yoki vositachilik haqlari hisoblanishining oldini olish maqsadida, Mijoz to'lovni 2-3 kun oldindan amalga oshirishi zarur.
- 3.8. **Foizsiz (imtiyozli) davr:** so'nggi Hisobot davri doirasida bank kredit mablag'laridan karta orqali xaridlarni amalga oshirish uchun foydalanganlik uchun foizlar undirilmaydigan davr, bunda foizsiz davr qarzdorlik summasi to'lov sanasiga qadar to'liq miqdorda to'lanishi shart.
- 3.9. Bank Limit miqdorini kamaytirish yoki ko'paytirish tomonga qayta ko'rib chiqish huquqiga ega. Qayta ko'rib chiqish Mijozning kreditga layoqatliligi, to'lov qobiliyati va to'lov intizomini muntazam baholash natijalari asosida amalga oshiriladi.
- 3.9.1. Baholash natijalari qoniqarsiz bo'lgan taqdirda, Bank Bosh Shartlarda nazarda tutilgan aloqa kanallari orqali (shu jumladan Ilova, SMS, Push-xabarnoma yoki xat orqali) Mijozni xabardor qilgan holda, Limit miqdorini bir tomonlama kamaytirishga haqli. O'zgartirilgan Limitga rozi bo'lmagan taqdirda, Mijoz Karta va Limitdan foydalanishni to'xtatishi va Shartnomani bekor qilish uchun Bankka murojaat qilishi shart. Limitdan foydalanishni davom ettirish yoki Karta bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish orqali Mijoz yangi Limitga rozilik bildirgan hisoblanadi. Qayta ko'rib chiqilgan Limit Bank tomonidan tegishli bildirishnoma yuborilgandan so'ng darhol kuchga kiradi.
- 3.9.2. Limitni oshirish uchun uning miqdorini qayta ko'rib chiqish faqat Mijozni xabardor qilgan holda amalga oshiriladi. Xabarnoma Ilovaning mavjud funksiyalari orqali tasdiqlanadi va qayta ko'rib chiqilgan limitni hisobga olgan holda kredit limiti to'g'risidagi shartnomaning yangilangan shartlarini qabul qilganlikni bildiradi. Mijoz limitni oshirishga rozi bo'lmagan taqdirda, belgilangan aloqa kanallari orqali uni bekor qilishni so'rab Bankka murojaat qilish huquqiga ega. Bunday holda, Limit miqdori oshirishdan oldingi holatiga qaytariladi. Qayta ko'rib chiqilgan Limit Bank tegishli xabarnomani yuborgandan so'ng bir kun ichida kuchga kiradi.
- 3.10. Ilovada tegishli funksionallik mavjud bo'lgan taqdirda, Mijoz Karta bo'yicha Limit miqdorini qayta ko'rib chiqishni talab qilishga haqli. Yangi Limitni taqdim etish to'g'risidagi yakuniy qaror Bank tomonidan 15 ish kuni ichida o'z ixtiyoriga ko'ra, ichki mezonlarni, shu jumladan xavflarni baholash va tartibga solish talablarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Bank mijozga qabul qilingan qarorning asoslarini oshkor qilishga majbur emas. Bank tomonidan ma'qullangan taqdirda, qayta ko'rib

chiqilgan Limit Bank tegishli qaror qabul qilganidan keyin bir kun ichida kuchga kiradi.

3.11. Limitning joriy o'lchami har doim Ilova interfeysida ko'rsatiladi.

3.12. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra, kredit va/yoki operatsion xatarlarni baholashdan kelib chiqib, shuningdek Mijoz tomonidan to'lov intizomi buzilgan taqdirda yoki Bank tomonidan nazarda tutilgan boshqa hollarda, Limitdan foydalanishni qisman yoki to'liq vaqtincha cheklash huquqiga ega. Bunda tasdiqlangan Limit miqdori o'zgartirilmaydi. Vaqtinchalik cheklov o'rnatilgan holda, tasdiqlangan Limitning foydalanish mumkin bo'lgan qismi miqdori Bank ilovasining – TBC UZ interfeysi orqali ko'rsatiladi. Cheklov tegishli holatlar bartaraf etilgunga qadar amal qiladi va Bank tomonidan bekor qilinishi yoki yumshatilishi mumkin.

4. KREDIT LINIYASI VA KARTA LIMITINI RASMIYLASHTIRISH

4.1. Limitni olish uchun Qarz oluvchi Bankning TBC UZ ilovasida kredit arizasini rasmiylashtiradi. Mijoz kredit arizasini rasmiylashtirish orqali Bank veb-saytida joylashtirilgan kredit olish uchun minimal talablar bilan tanishganligini tasdiqlaydi.

4.2. Qarz oluvchining skoringi o'tkazilgandan va skoringning ijobiy natijasi olingandan so'ng, Bank tasdiqlangan birlamchi limit miqdorida individual kreditlash shartlari bilan Shartnomani taqdim etadi. Qarz oluvchi Shartnoma bilan tanishib chiqishi va interfeysda keltirilgan ko'rsatmalarga muvofiq Shartnomani mobil ilovada kelishib olishi (akseptlashi) kerak.

4.3. Shartnoma qabul qilinganidan so'ng, Bank Qarz oluvchining nomiga Karta chiqaradi. Karta 3 ish kunidan 10 ish kunigacha muddatda tayyorlanadi. Kartani yetkazib berish muddati Bankning aloqa kanallari orqali Qarz oluvchiga aniq ma'lum qilinadi va yetkazib berish manziliga qarab farqlanishi mumkin.

4.4. Qarz oluvchi Kartani olgandan so'ng uni faollashtirishi kerak. Kartani faollashtirish TBC UZ mobil ilovasi orqali ilova interfeysida ko'rsatilgan ko'rsatmalar bo'yicha amalga oshiriladi.

4.5. Karta faollashtirilgandan so'ng, Limitdan Kartaning faollashtirish kunidan boshlab bir ish kunidan kechiktirmasdan sarflash uchun foydalanish mumkin.

4.6. Bank kartalaridan foydalanishning umumiy shartlari "TBC Bank" ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlari (bundan buyon matnda Bosh Shartlar deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi (qarang: <https://tbcbank.uz/uz/documents>).

5. XARAJATLAR, HISOB-FAKTURA TAQDIM ETISH VA TO'LOVLAR

5.1. Qarz oluvchi to'lovlarni amalga oshirishi, naqd pul yechib olishi, shuningdek, Karta funksiyasida nazarda tutilgan boshqa tranzaksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Limit mablag'lari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday xarajatlarga ishlatilishi mumkin.

- 5.2. Kredit limiti sarflanganda mavjud limit foydalanilgan qismiga kamaytiriladi va so'ndirilgan Asosiy qarz summasiga yangilanadi. Limitning foydalanilgan qismiga Bank Kartaga xizmat ko'rsatuvchi to'lov tizimidan tranzaksiyalar (kliring natijalari) tasdiqlangandan keyingi kundan boshlab foizlar hisoblaydi.
- 5.3. Limit mablag'lari vositachilik to'lovlarini qoplash, valyuta ayirboshlashdagi farqni to'lash, tarif xizmatlarini to'lash, uchinchi tomon xizmatlarida takroriy/avtomatik yechib olishlar va/yoki Qarz oluvchi kelishgan boshqa xarajatlarni amalga oshirish uchun yetarli bo'lmasa, Bank Qarz oluvchiga mazkur xarajatlarni to'lash uchun texnik overdraft taqdim etishi mumkin. Texnik overdraft asosiy qarz bilan birgalikda hisoblanadi va to'lanadi.
- 5.4. Bank har oyda Ko'chirma sanasida (3.6-band) Qarz oluvchiga amalga oshirilgan operatsiyalar va o'tgan Hisobot davrida yuzaga kelgan Bank oldidagi qarzдорlik summasi ko'rsatilgan Ko'chirmani yuboradi (1.3-band).
- 5.5. Qarzдорlik operatsion kunning oxirigacha har oyda so'ndirish sanasida (3.7-band) to'lanishi lozim. To'lovlar so'ndirishning eng kam summasi (3.5-band) miqdorida yoki foizsiz davr qarzдорligining to'liq summasi hajmida amalga oshirilishi kerak.
- 5.6. Hisobotdan chiqarilgan kundan to Qarzni to'lash muddatigacha Qarz oluvchiga Foizsiz davr taqdim etiladi (3.8-band). Foizsiz davrning birinchi kuni soat 00:01 dan boshlab oxirgi kuni soat 19:00 gacha Qarz oluvchi Hisobotdagi barcha qarzдорliklarni hisoblangan foizlarni to'lamasdan mustaqil ravishda muddatidan oldin to'lashi mumkin, 5.7-bandda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.
- 5.7. Agar:
 - 5.7.1. Hisobot davrida Qarz oluvchi tomonidan Cash-operatsiyalar amalga oshirilgan (1.7-band) - bunday Cash-operatsiyalar uchun hisoblangan foizlar to'liq hajmda to'lanishi lozim.
 - 5.7.2. Hisobot davrida Qarz oluvchi tomonidan Pos-operatsiyalar (1.6) va Cash-operatsiyalar amalga oshirilgan - Pos-operatsiyalar foizsiz qoplanishi uchun Qarz oluvchi hisobot davrining barcha qarzдорliklarini to'lashi lozim. Hisobot davri uchun Pos-operatsiyalar va Cash-operatsiyalar bo'yicha barcha qarzдорliklar foizsiz davr mobaynida to'lanmagan taqdirda, hisobot davri uchun hisoblangan barcha foizlar to'lanishi lozim.
 - 5.7.3. O'tgan Hisobot davrida Qarz oluvchida Minimal to'lovni to'lash muddati kechiktirildi.
- 5.8. To'lov sanasida Qarz oluvchining qarzдорlik miqdoridagi mablag'lari avtomat tarzda hisobdan chiqariladi. Kartada mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda, pul Bankdagi boshqa hisobvaraqlardan yoki TBC UZ ilovasiga ulangan kartalardan yechib olinadi.

- 5.9. Qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltirilgan to'lov Bankka pul mablag'lari kelib tushgandan so'ng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Bu holat to'lov tizimi yoki to'lov amalga oshirilgan to'lov kompaniyasi tomonidan to'lovni kiritish tranzaksiyasi (kliringni qabul qilish va qayta ishlash) tasdiqlanganidan keyin yuz beradi.
- 5.10. Qarzdorlikni to'lash hisobiga to'lovlar keyingi navbatda to'lanadi:
- 5.10.1. Asosiy qarz bo'yicha mutanosib muddati o'tgan qarzdorlik, kechiktirilgan foiz to'lovlari va muddati o'tgan asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar;
 - 5.10.2. Hisobot davri uchun hisoblangan foizlar;
 - 5.10.3. Asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
 - 5.10.4. Bankning qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq boshqa xarajatlari.
- Bunda, mijozning POS-operatsiyalar va Cash-operatsiyalar bo'yicha foiz qarzdorligi va asosiy qarzdorligi mavjud bo'lsa, birinchi navbatda POS-operatsiyalar bo'yicha qarzdorlik so'ndiriladi.
- 5.11. Agar so'ndirish sanasida Qarz oluvchining hisobvaraqlarida pul mablag'lari bo'lmasa va/yoki to'lov yetarli miqdorda amalga oshirilmagan bo'lsa, Qarz oluvchida muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'ladi va Karta limiti bloklanadi. Bunday holda, muddati o'tgan qarzdorlikka Oshirilgan foizlarning (3.4.3-band) butun summasi kiritiladi.
- 5.12. Limitni blokdan chiqarish uchun Qarz oluvchi Bank oldida yuzaga kelgan barcha muddati o'tgan qarzdorliklarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi kerak. Qarzdorlik to'langandan so'ng, agar Qarz oluvchining kredit qobiliyati yomonlashishi natijasida Bank 6.2, 7.1.2 va 9.1-bandlarga muvofiq huquqlardan foydalanmasa, Qarz oluvchi Limitning barcha mablag'laridan umumiy tartibda foydalanishi mumkin.
- 5.13. Agar Qarz oluvchida Limit muddatiga 20 (yigirma) oy qolganida to'lanmagan foydalanilgan limit mavjud bo'lsa, Limit yopiladi va mavjud qarzdorlik summasi har oyda qarzdorlik miqdorining yigirmadan bir qismini tashkil etadigan hajmda to'lanishi shart.

6. LIMIT MUDDATI VA KARTALAR

- 6.1. Limit Qarz oluvchiga "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga muvofiq pensiya yoshiga yetgunga qadar bo'lgan muddatga beriladi. Bunda, agar erkaklar uchun 58 (ellik sakkiz) yosh va ayollar uchun 53 (ellik uch) yoshga to'lgan kunda Qarz oluvchining to'lanmagan limiti bo'lmasa, foydalanilmagan limit yopiladi va shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

- 6.2. Karta 5 (besh) yil muddatga chiqariladi. Karta kartada ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi. Agar Karta muddati tugagandan so'ng Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilish to'g'risida e'lon qilmasa, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Kartani yangi muddatga qayta chiqarishi mumkin.

7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bank huquqlari:

- 7.1.1. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini o'rganish va majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish.
- 7.1.2. Shartnoma tuzilgunga qadar yoki amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda o'z xohishiga ko'ra Limitni taqdim etish, blokdan chiqarish va/yoki o'zgartirishni rad etish.
- 7.1.3. Qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorligini Bankdagi va/yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridagi barcha hisobvaraqlari va omonatlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.
- 7.1.4. Muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lganda va/yoki noqonuniy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shuningdek, Bank tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida Karta, Limitni bloklash va/yoki Karta bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish yoki uni qayta chiqarish.
- 7.1.5. Kredit arizasida ko'rsatilgan bog'lanish uchun ko'rsatilgan shaxslari haqida, shuningdek, Bank ma'lumotlariga ko'ra Qarz oluvchining muddati o'tgan pul majburiyatlarini bajarishiga yordam berishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar bilan qarzdorliklarni to'lash masalalari yuzasidan qo'ng'iroqlar amalga oshirish va suhbatlar olib borish.
- 7.1.6. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi to'g'risidagi axborotni kredit byurolariga va kredit axborotining davlat reyestrlariga taqdim etish.
- 7.1.7. Mablag'larni sarflash maqsadi va rejalari to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rash, Qarz oluvchi to'g'risidagi shaxsiy, identifikatsiya va boshqa ma'lumotlarni aniqlashtirish.
- 7.1.8. Karta bo'yicha mumkin bo'lgan operatsiyalar to'plamini o'zgartirish, Limit bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalarni o'zgartirish hamda Pos va Cash operatsiyalari ro'yxatini to'ldirish yoki o'zgartirish.
- 7.1.9. "TBC Bank" ATB mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Bosh Shartlarda nazarda tutilgan tartibda Shartnoma shartlari va Karta tariflarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish.

7.2. **Bank majburiyatlari:**

- 7.2.1. Limit, Karta va Karta bo'yicha bank xizmatining ishlashini ta'minlash.
- 7.2.2. Kelib tushgan pul mablag'larini qarzдорlikni qaytarishga yo'naltirish.
- 7.2.3. Qarz oluvchiga Limit, Karta va Shartnoma shartlaridan foydalanish bo'yicha maslahat berish.
- 7.2.4. Ushbu Shartnoma shartlariga Qarz oluvchining huquqlarini cheklashga va/yoki majburiyatlarini ko'paytirishga olib keladigan bir tomonlama o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik, Shartnomada bevosita ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

7.3. **Qarz oluvchi huquqlari:**

- 7.3.1. Limit mablag'laridan foydalanish va Karta bo'yicha operatsiyalarni o'z xohishiga ko'ra amalga oshirish.
- 7.3.2. Qarzдорlikni muddatidan oldin to'liq yoki qisman to'lash uchun hech qanday komissiya to'lamasdan qaytarish.
- 7.3.3. Mavjud qarzдорlik bo'yicha ma'lumot olish, Limitni sarflash va Kartadan foydalanish bo'yicha maslahat olish uchun Bankka murojaat qilish.
- 7.3.4. Limitni oshirish, kartani qayta chiqarish va texnik nosozliklar haqida xabar berish masalalari bo'yicha Bankka murojaat qilish.
- 7.3.5. Limitni olishdan oldin, shuningdek, uni olgandan so'ng, Bank oldidagi to'lanmagan qarzдорlik mavjud bo'lmagan taqdirda, istalgan vaqtda undan voz kechish.

7.4. **Qarz oluvchi majburiyatlari:**

- 7.4.1. Qarzдорlikni o'z vaqtida to'lash va Karta, Limit va boshqa bank xizmatlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha komissiya/tarif xarajatlarini to'lash.
- 7.4.2. Bankning so'roviga binoan o'zining mulkiy holati va mablag'larni sarflash maqsadlari haqidagi hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etish.
- 7.4.3. 5 (besh) ish kuni ichida o'zining aloqa ma'lumotlari, pasport ma'lumotlari va yashash manzili o'zgarganligi haqida Bankni xabardor qilish.
- 7.4.4. PIN kodlar, SMS kirish kodlari, bir martalik parollar, mobil qurilmaga kirish ruxsatlarini uchinchi tomonlarga bermaslik.
- 7.4.5. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Bank talabiga binoan Kartani Bankka qaytarish.

- 7.4.6. Bankning rozilgisiz Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

8. JAVOBGARLIK

- 8.1. Qarz oluvchi Bank oldidagi qarzdorlikning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi uchun javobgardir.
- 8.2. Qarz oluvchi quyidagilar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:
- 8.2.1. Karta orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarning qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va to'g'ri bajarilishi uchun;
 - 8.2.2. Kartani saqlash va unga zarar yetkazilishidan himoya qilish uchun;
 - 8.2.3. Qarz oluvchining kartasi, limiti va akkauntiga kirish imkonini beruvchi ma'lumotlarning maxfiyligi uchun.
 - 8.2.4. Qarz oluvchining akkauntidan yoki bankning aloqa kanallari orqali uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanib amalga oshirilgan to'lov topshiriqnomalari, roziliklar va avtorizatsiyalar uchun.
- 8.3. Bank va Qarz oluvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.
- 8.4. Bank ushbu Shartnomani tuzish, Karta va/yoki Limitdan foydalanish, Qarz oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaslik natijasida yuzaga kelgan har qanday yo'qotishlar/xarajatlar uchun Qarz oluvchi oldida javobgar bo'lmaydi.
- 8.5. Bank Bosh Shartlarga muvofiq javobgar bo'ladi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

- 9.1. Bank Qarz oluvchini elektron aloqa kanallari yoki mobil ilova orqali Shartnomani bekor qilish kunida xabardor qilish yo'li bilan quyidagi hollarda Limitni bloklash va Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega agar:
- 9.1.1. Qarz oluvchi Karta chiqarilgandan keyin 6 (olti) oy davomida uni faollashtirmagan;
 - 9.1.2. Qarz oluvchi to'lov muddati o'tganidan so'ng 1 ish kunidan ortiq vaqt davomida qarzdorlikni to'lashdan va/yoki Bankning boshqa talablarini bajarishdan bosh tortsa;
 - 9.1.3. Qarz oluvchi Bank bilan bog'lanishdan bosh tortadi va talab qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida Bank tomonidan so'ralgan hujjatlar/ma'lumotlarni taqdim etmaydi;
 - 9.1.4. Qarz oluvchiga nisbatan tergov ishlari olib borilmoqda/ jinoiy ish qo'zg'atilgan/ ijro ishi yuritilmoqda/ qarz oluvchini bankrot deb topish

to'g'risida da'vo taqdim etilgan/ kreditorlarning Qarz oluvchi uchun mavjud bo'lgan Limitning yarmidan ortiq miqdordagi talablari mavjud;

- 9.1.5. Qarz oluvchi tomonidan Bank yoki uning xodimlariga nisbatan noqonuniy / firibgarlik / korrupsiya / haqoratomuz harakatlar sodir etilgan bo'lsa;
 - 9.1.6. Qarz oluvchiga nisbatan xalqaro yoki mahalliy sanksiyalar qabul qilingan;
 - 9.1.7. Qarz oluvchi tomonidan o'zi va moliyaviy ahvoli to'g'risida noto'g'ri/yolg'on ma'lumotlar taqdim etilgan.
 - 9.1.8. Shartnoma imzolangandan va Limit tasdiqlangandan so'ng 30 (o'ttiz) kun ichida Qarz oluvchi Kartani buyurtma qilmagan.
- 9.2. Qarz oluvchi Shartnomani bekor qilishdan 30 (o'ttiz) kun oldin Bankni xabardor qilgan holda Shartnomani bekor qilishga haqli, agar Shartnomaning bekor qilinishi to'g'risida xabardor qilingan kunga qadar Qarz oluvchining Bank oldida to'lanmagan qarzдорligi bo'lmasa (xabarnoma kunigacha tuzilgan so'nggi Ko'chirmada Asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzдорlik mavjud bo'lmasa).

10. NIZOLARNI HAL QILISH

- 10.1. Ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolarni Bank va Qarz oluvchi ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladi. Da'vo tartibi majburiy hisoblanadi. Da'voni ko'rib chiqish muddati - 15 (o'n besh) kalendar kun.
- 10.2. Agar nizo tinch yo'l bilan hal etilmasa, ushbu nizo Bankning qaroriga ko'ra uzil-kesil hal etiladi:
- 10.2.1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik sudida Bosh Shartlarda nazarda tutilgan tartibda;
 - 10.2.2. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qarzдорlik notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan undirilganda, Qarz oluvchi notarial ijro yozuvining haqiqiyiligini so'zsiz tan olishini ma'qullaydi.

11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1. Shartnoma Bosh Shartlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Karta, to'lov va kredit mahsulotlarini taqdim etishning umumiy shartlari hamda Bankning Qarz oluvchi bilan bog'lanish masalalari Bosh Shartlar bilan tartibga solinadi.
- 11.2. Ushbu Shartnoma va Bosh Shartlarda ko'zda tutilmagan holatlarda, Bank va Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

- 11.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni kredit byurolaridan va boshqa manbalardan/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan so'rab olishga rozilik beradi;
- 11.4. Shartnoma ushbu Shartnomaning 2.3-bandiga ko'ra qabul qilingan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va uning muddati tugagunga qadar yoki Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.
- 11.5. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirishga faqat Tomonlarning o'zaro roziligi bilan yo'l qo'yiladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
- 11.6. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda, shuningdek, TBC Uz ilovasining funksionalida nazarda tutilgan hollarda, elektron shaklda rasmiylashtiriladi va Qarz oluvchi tomonidan qabul qilinganidan so'ng (tegishli bildirishnomani tasdiqlash orqali) qonuniy kuchga kiradi.